# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

№7



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

2025

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir oʻrinbosari:**
**Karimov Norboy Gʻaniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

*Elektron nashr. 552 sahifa.*
*E'lon qilishga 2025-yil 1-iyulda ruxsat etildi.*

**Tahrir hay'ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – Oʻzbekiston doʻstlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat Gʻafforovna,** pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdugʻaniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Koʻnak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoʻja oʻgʻli,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Utayev Uktam Choriyevich,** Oʻz.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshligʻi oʻrinbosari
**Ochilov Farkhod,** Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshligʻi
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil oʻgʻli,** texnika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), katta oʻqituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon oʻgʻli,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor oʻgʻli,** TDIU katta oʻqituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

# YASHIL

**IQTISODIYOT&TARAQQIYOT**

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*



**Editorial board:**

**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Ochilov Farkhod,** Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

**Ekspertlar kengashi:**
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**G'afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o'qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi

**Board of Experts:**
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

**Jurnalning ilmiyligi:**
""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

# MUNDARIJA

Suv tarkibining wireless waterlight qurilmasi ishlashiga ta'siri va iqtisodiy samaradorligini matematik model asosida tahlil qilish ........ 14
**Kungiratbay Sharipov, Ma'ruf Nurmanov**

O'zbekistonda aholi ish bilan bandligini oshirishda davlatning roli ........ 20
**Juraqulov Baxrimurod Ilxomovich**

BIM texnologiyasi: zamonaviy qurilish sohasida samaradorlik va shaffoflik omili ........ 26
**Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.**

Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida marketing faoliyati samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish ........ 31
**Yuldashov Isomiddin Sidiqovich**

Korxona iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda diversifikatsiya strategiyasining roli ........ 35
**Alimatova Shoxsanam Abdumalik qizi**

Модели совместного развития человеческого капитала и искусственного интеллекта в цифровую эпоху ........ 40
**Явкачев Шохзод Зайниддин углы**

Navigating sustainable development: management challenges and solutions in the oil and gas sector ........ 49
**Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol kizi**

Banklarda moliyaviy barqarorlikning nazariy asoslari ........ 56
**Djalilov G'ayrat Qaxramanovich**

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm industriyasidan foydalanishda xorijiy mamlakatlar tajribalari ........ 66
**Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich**

O'zbekistonda barqaror davlat qarzi siyosatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari ........ 71
**Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich**

Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в узбекистане ........ 76
**Salimov Sherzod Baxtiyorovich**

Economic analysis and development strategy of the composites market in the regions of Uzbekistan ........ 81
**S.S.Sidiqov, A.A.G'ulomov, B.R.Tillayeva**

Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillikning kutilayotgan istiqbollari va hozirgi natijalari ........ 88
**Muxamedov Ravshan Zafarovich**

Elektron tijoratni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish yo'llari ........ 93
**Homidov Baxtiyor Rahimberdievich**

Investitsion jozibadorlik konsepsiyasi va uning strategik ahamiyati ........ 99
**Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li**

Beomeditsina signallarini xaar veyvletlari va bo'lak veyvletlari yordamida raqamli ishlash ........ 105
**Uraqov Shokir Ulashovich**

Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning ahamiyati, tartibi va takomillashtirish yo'llari ........ 112
**Istamova Sojida Kaxarovna**

The role of all kinds of transports (road, rail, air, and water) in the modern enhancement of tourism logistics in Uzbekistan ........ 117
**Egamberdiyeva Yulduz, Turdiyeva Maftuna**

Sanoat korxonalarida kapitalarini samaradorligini oshirishning baholashning zamonaviy usullarining xususiyatlarida nazariy va amaliy farovonlik sari ........ 126
**Muradov Botir Xayat**

Инструменты планирования урбанизации: методика анализа планового распределения средств в программе «обод махалля» на основе балльной оценки ........ 136
**Салимова Юлдуз Исаковна**

Socio-economic aspects and contemporary theories of higher education finance ........ 141
**Karlibaeva Gulshat**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Transformatsiya jarayonida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish yo'llari ..... 147
**Absamatov Anvar Ergashovich**

Перспективы цифрового развития сектора материального производства ..... 153
**С. И. Протасеня, Г. Ж. Аллаева**

«Sustainable logistics practices. Minimizing carbon emissions in global supply chains» ..... 161
**Suleymonova Ezoza, Alimova Bonu**

Analyzing the need for Tourism logistics development in Uzbekistan ..... 169
**Nigmatova Malika**

Management strategies for sustainable tourism development in emerging destinations (a case study of Samarkand, Issyk-kul, and Khiva) ..... 177
**Sabina Urokova**

Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini strategik rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari va ularning qo'llanilishi ..... 184
**Daminova Barno Esanovna**

Опыт турции в управлении миграционными кризисами ..... 189
**Бегматов Хусанбек**

Bulutli texnologiyalar orqali korxona buxgalteriya tizimini raqamlashtirish va samaradorlikka erishish ..... 193
**Soibov Nozimbek Faxriddin o'g'li**

Barqaror rivojlanish doirasida jismoniy shaxslarni kreditlash tizimini isloh qilishning institutsional asoslari ..... 197
**Xalekeyeva Zoya Pirniyazovna, Akmal Abdurahmonov Nurmamatovich**

Moliyaviy autsorsing xizmatlari bozori rivojlanishini takomillashtirishning swot tahliliga asoslangan innovatsion mexanizmlari ..... 202
**San'atbek Komilovish Salayev, Umidbek Komiljanovich Babajanov**

Transformatsiya jarayonlari sharoitida iqtisodiyot tizimi faoliyati va prognozlashning nazariy asoslari ..... 214
**Alimov Fazliddin Xalimovich**

Пути совершенствования подхода к финансированию проектов, реализуемых на принципах промышленной кооперации ..... 220
**Котов В.А., Шадиева Д.Х.**

Yuksalish salohiyatini yuksaltirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatidan foydalanish masalalar ..... 225
**Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li**

Bank xizmatlari ommabopligini oshirish yo'llari ..... 228
**Kasimova Muxlisa Anvar qizi**

Chemical industry in uzbekistan: challenges and development ..... 235
**Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna**

Samarqand viloyatida tabiiy turistik resurslardan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish orqali bandligini oshirish imkoniyatlari ..... 240
**Rabbimov Muhriddin Musoqul o'g'li**

Globallashuv sharoitida ekologik xavflarni kamaytiririshda yashil iqtisodiyotning ahamiyati ..... 246
**Xolbekova Feruzaxon Rasulovna**

Qibray tumanining 2021–2023-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati ..... 249
**Siddikov Alisher Ismoilovich**

Davlat xaridlari tizimida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish: xalqaro tajribalar tahlili ..... 253
**Majidov Nizom Baxramovich**

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning xorij tajribasi ..... 259
**Ermatov Nosir Tohirovich**

Aholi farovonligi darajasiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarni ekonometrik baholash ..... 265
**Toshaliyeva Saodat Toxirovna, Allamurodova Zuxra Alibekovna**

Сектор услуг как стратегический фактор структурной трансформации экономики Узбекистана ..... 272
**Кадыров Абдурашид Маджидович, Ахмедиева Алия Тохтаровна**

O'zbekistonda valyuta kursini shakllanish holati prognozlari ..... 280
**Samandarov Zuxriddin Raup o'g'li**

Проблемы бухгалтерского учета в условиях цифровизации экономики ..... 288
Абдуллаев Абдурауф
Raqamli texnologiyalar sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish strategiyalari ..... 299
Kuldoshev Lazizjon Sharifovich
Davlat boshqaruvi organlarining strategik rejalarini ishlab chiqish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi ..... 303
Dilshod Pulatov, Xamidaxon Akbarova, Dildora Mirzaeva
Tijorat banklarining moliyaviy xavfsizligi ta'minlash ..... 310
Mamatov Sardor Axmatjonovich, Mavlanov Nuriddin Boyqobilovich, Sattarov Nodirjon Absalomovich
Ziyorat turizmini rivojlantirishda halol standartlarini qo'llashning nazariy, uslubiy va konseptual asoslari ..... 315
Azizova Saodat Xabibulloyevna
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish bo'yicha yevropa tajribasi ..... 320
Karlibaeva Gulshat
Iqtisodiy konsentratsiyalarning sog'lom raqobat muhitiga ta'siri ..... 325
Luqmanov Sharifxon A'zam o'g'li
Logistika axborot tizimlarini texnologik jarayonlarga joriy etish ..... 330
Uzaqov Ortik Shaymardanovich
Принципы перехода к «Зелёной экономике» в Республике Узбекистан ..... 336
Хамракулова Сусанна Тотуховна
Kichik biznesni rivojlantirish iqtisodiy ko'rsatkichlarini prognozlash modellarini qo'llash ..... 340
Ibragimova Gulchexra Toxirovna
Raqamli ta'lim sharoitida liderlikning yangi qirralari ..... 357
Oqmullaev Ravshan Raximjon o'g'li, Xodjieva Durdona Abdurasulovna
Методология развития экологического менеджмента в промышленном хозяйстве выбросы в атмосферный воздух на горнодобывающих и металлургических предприятиях ..... 361
Muradov Botir Xayat
Strategik budjetlashtirish tizimining natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimi bilan bog'liqligi, xalqaro tajriba va O'zbekiston uchun tavsiyalar ..... 370
Xushmurotov Zoyir Bektemirovich
Cultural branding and the entry of traditional products into the international market ..... 374
Zebiniso Ganiyeva
Farovonlikni baholash bo'yicha ilg'or xorijiy nazariy yondashuvlar ..... 379
Norqobilov Nusratilla Norsaitovich
O'zbekistonda hududlarini turizm salohiyatini innovatsion yondashuv asosida baholash ..... 384
Umirova Dilnoza Safarovna
Tourism education for sustainability: curriculum development in universities of Uzbekistan ..... 393
Temirova Durdona, Yorqulov Muhammadmurod
The contribution of small enterprises and private entrepreneurs to job creation in the labor market ..... 399
Juraboev Haliljon
Iqtisodiy o'sish sharoitida transport infratuzilmasi holati va uni rivojlantirish yo'llari ..... 404
Haydarov Jahongir Aktamovich
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni strategik boshqarishning nazariy asoslari va xorijiy tajribalar ..... 410
Quvondiqov Farrux Ibragimovich
Tijorat banklarida iqtisodiy samaradorlikni axborot texnologiyalar orqali rivojlantirish istiqbollari ..... 418
Dadenova Gulxan Kenesbaevna
Механизмы усовершенствования процедур выявления и анализа недостоверной финансовой отчетности в условиях учетной практики Узбекистана ..... 422
Намозов Жасурбек Кувадович
Влияние цифровых инструментов управления финансами на эффективность использования финансовых ресурсов ..... 428
Хазиратк улов Собиржон

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

На пути к промышленному росту: опыт развивающихся стран ... 435
Матлюбов Хуршид Жамшидович
Yoshlarning moliyaviy mustaqilligiga erishishida aksiyalar bozorining oʻrni va imkoniyatlari ... 443
Oʻraqov Bekzodbek Abdurayxon oʻgʻli
Развитие транспортной инфраструктуры и влияние на качество предоставляемых транспортных услуг ... 448
Кайыбеков Парахат Конысбаевич
Surxondaryo viloyatida 2015-2024 yillar mobaynida oziq-ovqat chakana savdo aylanmasining statistik tahlili ... 454
Toshpulatov Bobur Rasul oʻgʻli
Qishloq xoʻjaligi sohasi investitsiya loyihalarini xalqaro moliya institutlari orqali moliyalashtirish ... 458
Tolibov Shoxrux Muminovich
Qishloq xoʻjaligi korxonalarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari va muammolari ... 463
Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy oʻgʻli
Institutional innovation and regional governance for balanced interregional cooperation development: the case of Namangan, Uzbekistan ... 468
Sattarov R.A.
Organizational and economic mechanisms and conceptual directions of tourism development in the region ... 476
Daminova Barno Esanovna
Moddiy zaxiralarni boshqarish va uning bir tsikli modeli ... 480
Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich
Oliy ta’lim xizmatlari sifatini oshirishda inson kapitalini rivojlantirish va uni samarali boshqarish mexanizmlari ... 485
Salimov Akmal Alimjonovich
Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ilgʻor xorij tajribalari ... 490
Shadiyev Alisher Xudoynazarovich
Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida yoqilgʻi-energetika kompleksi korxonalarini barqaror innovatsion rivojlantirish modellari ... 496
Bobobekov Ergash Abdumalikovich
Oʻzbekistonda uzumchilikning oziq-ovqat xavfsizligiga ta’siri: muammolar va rivojlanish istiqbollari ... 502
Tursunov Toʻlqin Joʻraqulovich
Tadbirkorlik faoliyatining resurs salohiyati va uni baholashning nazariy yondashuvlari ... 508
Salohiddinov Zuhriddin Nuriddinjon oʻgʻli
Yoshlar bandligini ta’minlashda mehnat migrasiyasining ahamiyati ... 514
Masharipov Farrux Oʻtkirovich
Oʻzbekistonda ichki turizmni rivojlantirishning asosiy omillari va istiqbollari ... 521
Xasanova Mavjuda Ma’mirjonovna
Korxonaning brend platformasini ishlab chiqishning oʻziga xos xususiyatlari ... 526
Sa’dulloyev Habibullo Ibodullo oʻgʻli
Sanoat korxonalarining biznes jarayonlarini raqamli transformatsiya qilishda ERP tizimlarining integratsiyalashuvi va boshqaruv samaradorligiga ta’siri ... 530
Islomjon Nurmukhammadov
Namangan viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlanishini baholash ... 533
Ismoilova Savinoz Qahramon qizi
Oliy ta’lim muassalari boshqaruviga ta’sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili ... 540
Karimov Muzaffar Abdumalik oʻgʻli
Soliq yigʻiluvchanligini oshirishda soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish istiqbollari ... 546
Tojibayev Farrux Baxtiyorovich

IQTISODIYOT ЭКОНОМИКА ECONOMY

# SOLIQ YIG‘ILUVCHANLIGINI OSHIRISHDA SOLIQ MA’MURIYATCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

**Tojibayev Farrux Baxtiyorovich**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada soliq ma’muriyatchiligining iqtisodiy-ijtimoiy mohiyati va ahamiyati yoritilgan. Shu bilan birgalikda soliq ma’muriyatchiligi va amaldagi soliq siyosati davlatning ijtimoiy-siyosiy tizimini shakllantirishda o‘zaro bog‘liq omillari sifatidagi ta’sir darajalari o‘rganilgan. Soliq va moliya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning soliq ma’muriyatchiligining samaradorligiga ta’siri o‘rganilgan. Soliq ma’muriyatchiligida budjet daromadlarini shakllanishida ta’sir etuvchi asosiy faktorlardan biri bu soliq yig‘iluvchanligi darajasi hisoblanadi. Tahlillar natijasida soliq yig‘iluvchanligini oshirishda soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirishga xizmat qiladigan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: soliqlar, soliq ma’muriyatchiligi, davlat budjeti, budjet daromadlari, soliqlar mexanizmi, soliq yig‘iluvchanligi, soliq qarzdorligi.

Abstract: This article discusses the economic and social nature and significance of tax administration. At the same time, the degree of influence of tax administration and current tax policy as interrelated factors in shaping the socio-political system of the state is studied. The impact of reforms in the tax and financial system on the efficiency of tax administration has been studied. One of the main factors affecting the formation of budget revenues in tax administration is the level of tax collection. As a result of the analysis, scientific proposals and practical recommendations have been developed that serve to improve tax administration in increasing tax collection.

Key words: taxes, tax administration, state budget, budget revenues, tax mechanism, tax collection, tax debt.

Аннотация: В статье рассматриваются экономическая и социальная сущность и значение налогового администрирования. При этом изучается степень влияния налогового администрирования и текущей налоговой политики как взаимосвязанных факторов на формирование социально-политической системы государства. Исследовано влияние реформ налогово-финансовой системы на эффективность налогового администрирования. Одним из основных факторов, влияющих на формирование доходов бюджета в сфере налогового администрирования, является уровень собираемости налогов. В результате анализа разработаны научные предложения и практические рекомендации, служащие совершенствованию налогового администрирования в части повышения собираемости налогов.

Ключевые слова: налоги, налоговое администрирование, государственный бюджет, доходы бюджета, налоговый механизм, взимание налогов, налоговая задолженность.

## KIRISH

Soliq ma’muriyati soliq munosabatlarini davlat boshqaruvi instituti bo‘lib, uning maqsadi davlatning samarali soliq siyosatini amalga oshirishdir. U har qanday davlatning amaldagi soliq tizimida soliq qonunchiligi doirasida soliq organlarining muayyan funksiyalari va soliq munosabatlari ishtirokchilari o‘rtasida shakllangan munosabatlar majmui bo‘lib, u qulay va motivatsion sharoitlarni yaratishga qaratilgan, shuningdek, u soliq to‘lovchilar va soliq munosabatlarida ishtirok etuvchi boshqa subyektlar o‘rtasidagi qonuniy huquq va manfaatlarni himoya qilish uchun mo‘ljallangan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2025-yilning 16-iyun kuni islohotlar natijadorligi, hududlarda ishlarning borishi va aholini qiynayotgan masalalar tahlili bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Yig‘ilish boshida joriy yilning besh oyidagi iqtisodiy-ijtimoiy ko‘rsatkichlar qayd etildi. Bu davrda sanoat 6,4 foiz o‘sgan, eksport miqdori 18 foiz, xorijiy investitsiyalar 46 foiz oshgan. Qiymati 3 milliard dollarlik 2 ming 500 dan ziyod yangi quvvat ishga tushgan. 2 million 400 ming odam daromadli bo‘lgani e’tirof etildi.

Unda aytilishicha, yil boshidan hududlarda budjetga tushum 26 foizga o‘sdi. Lekin Qoraqalpog‘iston, Jizzax, Qashqadaryo va Xorazmda o‘sish respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichga ham chiqmadi. Yer, mol-mulk va

suv soliqlari mahalliy budjetda qoldirilmoqda. Lekin faqat shu soliqlarni uyma-uy yurib undirishga soliqchilarning 70-80 foiz vaqti sarflanmoqda. “Bu 1 so‘m soliq yig‘ish uchun 2 so‘m resurs sarflash bilan barobar emasmi? Aslida, Soliq qo‘mitasi rahbariyati, viloyat, tuman soliq rahbarlari televideniye, gazeta, ijtimoiy tarmoqlarda chiqib, soliq to‘lash majburiyat emas, konstitutsiyaviy burch ekanini tushuntirsa, soliqlarni odamlarni o‘zi to‘lab qo‘yadiku! Agar mahalladagi soliqchi bunga ketgan vaqtini soliq bazasini kengaytirishga sarflasa, tushum karra-karra oshadi”[1], - dedi Prezident. Mutasaddilarga mahallada yer, mol-mulk, suv soliqlarini undirishning yangi mexanizmini ishlab chiqish topshirildi. Soliq yig‘iluvchanligini oshirish mamlakatda soliq ma’muriyatchiligi samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi asosiy faktor hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bir qator iqtisodiy adabiyotlarda soliq ma’muriyati tushunchasiga biror narsani rasmiy va byurokratik tarzda boshqarish deb ta’riflanadi. Davlat boshqaruvi jarayoni davlat boshqaruvi tizimining bir qismidir. Byurokratik boshqaruv usuli ma’muriy buyruq asosida nazorat qilinadi. Shunday ekan, ma’muriyatni boshqaruvning alohida turi deb hisoblash mumkin bo‘ladi[2].

Soliq ma’muriyatchiligining mohiyatiga eng mashhur nuqtayi nazarni M.Ospanov o‘zining “Soliq islohoti va soliq munosabatlarini uyg‘unlashtirish” asarida bayon etgan. U soliq ma’muriyatini davlat va soliq qonunchiligida belgilangan funksiyalar va huquqiy munosabatlar doirasida soliq ma’muriyatchiligini amalga oshirish sifatida belgilaydi. Uning asosiy komponenti soliqni boshqarish mexanizmi, ya’ni, soliq tizimini optimallashtiradigan, soliq to‘lovchilarga buxgalteriya hisobi va xizmat ko‘rsatishni yaxshilaydigan harakatlar tizimi[3].

L. Goncharenko soliq ma’muriyatchiligining to‘rt guruhini belgilaydi:

1) soliq ma’muriyatchiligi soliq munosabatlarini boshqarishga tenglashtiriladi, ya’ni, soliqlar va soliq tizimini boshqarishga;

2) soliq ma’muriyatchiligi subyektlariga (davlat organlari yoki soliq to‘lovchilarga) qarab, u davlat soliq boshqarmasi yoki soliq menejmenti tushunchalariga tenglashtiriladi;

3) soliq ma’muriyatchiligi soliq subyektlari o‘rtasida huquqiy tartibga solish tizimi sifatida qaraladi;

4) soliq ma’muriyatchiligi soliq organlari rahbariyati bilan belgilanadi[4].

L.Abramchik soliq ma’muriyatchiligini soliq sohasidagi o‘ziga xos boshqaruv mexanizmi sifatida ko‘rib chiqadi, bu orqali soliq organlari o‘zlarining kundalik faoliyatini amalga oshiradilar va soliq to‘lovlarining o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlaydilar[5].

Boshqa bir rus iqtisodchisi I. Peronkoning so‘zlariga ko‘ra, soliq ma’muriyatchiligi davlat tomonidan soliq munosabatlarini boshqarishning ajralmas tizimidir. U soliq tushumlari prognozi, budjetni tasdiqlash, soliq stavkalarini optimallashtirish va boshqalarni o‘z ichiga oladi[6].

A.Aronov va V.Kashin, soliq ma’muriyatchiligi - bu soliq organlari amaldagi soliq qonunlari doirasida soliq mexanizmlarini qo‘llash va ushbu jarayonlarni o‘zgaruvchan iqtisodiy va siyosiy sharoitlarda yo‘naltirish usullarining kombinatsiyasi sifatida e’tirof etadi[7].

Ba’zi mualliflar soliq ma’muriyatchiligiga boshqacha ta’rif berib, uni minimal xarajatlar bilan soliqlarni vaqtida to‘lashga qaratilgan harakatlar tizimi sifatida taqdim etadilar.

Yuqoridagi mualliflar bilan taqqoslaganda G.Chuxnina soliq ma’muriyatchiligining soddaroq ta’rifini beradi. Soliq ma’muriyatchiligi haqida gapirganda, u soliq munosabatlari subyektlari faoliyatini yuqori samaradorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha shakllantirish va amalga oshirishni tushunadi[8].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Olib borilgan tadqiqotlar davomida soliq ma’muriyatchiligining amaldagi holati hamda soliq yig‘iluvchanligini oshirishda ta’sir darajalarini baholash jarayonida mushohada, induksiya va deduksiya, dinamik qatorlar, iqtisodiy-statistik tahlil va sintez, statistik guruhlash, tizimli tahlil, taqqoslash va boshqa usullardan foydalanilgan.

1 Sh.Mirziyoyev. Islohotlar natijadorligi tahlil qilinib, qo‘shimcha vazifalar belgilandi. 16-iyun 2025-yil. https://president.uz/uz/lists/view/8225.
2 Q.To‘xsanov. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmini takomillashtirish: i.f.d.(DSc) ilmiy darajasini olishi uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent. TMI - 2023.
3 Ospanov M.T. Nalogovaya reforma i garmonizatsiya nalogovых otnosheniy. – SPb.: UEF, 1997.
4 Goncharenko L.I. Nalogooblojeniye organizatsiy: Uchebnik. – M., 2006. S-480.
5 Abramchik L.Ya. Nalogovoye administrirovaniye v sisteme finansovogo kontrolya // Finansovoye pravo. – 2005. – № 6. ogovыy vestnik. – 2000. – № 11.
6 Peronko I.A. Metodы i formы nalogovogo administrirovaniya // Nalogovыy vestnik. – 2000. – № 11.
7 Aronov A.V., Kashin V.A. Nalogovaya politika i nalogovoye administrirovaniye: ucheb. posobiye. – M.: Ekonomist, 2006.
8 Perekrestova L.V., Chuxnina G.Ya. Reformirovaniye sistemы nalogovogo kontrolya v RF. – Volgograd: VolGU, 2001.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Davlatning soliq tizimi iqtisodiyot va ijtimoiy jarayonlarni davlat tomonidan boshqarishning ajralmas qismidir. Soliq ma’muriyatchiligi va davlatning soliq siyosati davlatning ijtimoiy-siyosiy tizimini shakllantirishda o‘zaro bog‘liq omillardir. Soliq va moliya tizimidagi har qanday islohotlar soliq ma’muriyatchiligining samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi kerak.

Ma’muriyatni menejment sifatida ham, boshqaruv sifatida ham ko‘rib chiqish mumkin. Soliq ma’muriyati ma’muriy faoliyat bilan aniqlanmagan, chunki ikkinchisining xususiyatlaridan biri bu ma’muriy tartibga muvofiq tashkiliy va boshqa choralarni amalga oshirishga imkon beradigan majburlashdan foydalanishdir. Ma’muriy faoliyatning o‘ziga xos xususiyati, shuningdek, buyruq usullari va usullarining mavjudligi, soliq ma’muriyatining asosi esa soliq to‘lovchilar tomonidan soliq majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda bajarishdir. Soliq ma’muriyatining muhim xususiyatlaridan biri, shuningdek, soliq ma’muriyatida, umuman, ma’muriy faoliyatdan farqli o‘laroq, majburlash ishlatilmaydi.

“Ma’muriyat” tushunchasi nafaqat nazorat jarayonini, balki integratsiyalashgan boshqaruvni ham anglatadi. Shu maqsadda zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda “soliq ma’muriyati” va “soliq tizimini boshqarish” tushunchalari mavjud. Ushbu tushunchalarni 1-rasmda ko‘rib chiqamiz (1-rasm).




1-rasm. «Bozor tizimini boshqarish» va «Soliq ma’muriyatchiligi» tushunchalarini o‘zaro taqqoslanishi[9]

Soliq ma’muriyati, shuningdek, bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq organlari faoliyatini muvofiqlashtiradigan soliq munosabatlarini rivojlantirishning dinamik tizimi sifatida tushuniladi. “Soliq ma’muriyati” konsepsiyasining mualliflari soliq ma’muriyatchiligi bo‘yicha ko‘plab iqtisodchi olimlar tadqiqot olib borgan.

Soliq ma’muriyatchiligining mohiyati bilan bog‘liq barcha nuqtai- nazarlarni umumlashtirib, ikkita asosiy xulosaga kelishimiz mumkin. Birinchidan, soliq ma’muriyatchiligining mohiyatini sharhlovchi tadqiqotlar uning mazmunini oshkor qilishning xilma-xilligi bilan farq qiladi, bu yerda u “soliq ma’muriyati” bilan aniqlanadi. Ikkinchidan, soliq ma’muriyatchiligining mohiyati to‘g‘risida hukm chiqarish uchun uslubiy asoslar mavjud emas. Ular nazariy asosga ega bo‘lmagan aksiomalar sifatida qaraladi.

“Soliq ma’muriyatchiligi” tushunchasi uch tomondan ko‘rib chiqiladi. Birinchidan, boshqaruv organlari tizimi sifatida (qonun chiqaruvchi va ma’muriy soliq organlari). Ularning vazifalariga keyingi rejalashtirish davri uchun soliq tushunchalarining o‘tishini ta’minlash, ya’ni taqdimot va muhokama qilish, qonunchilik ketma-ketligida tasdiqlash kiradi. Bundan tashqari, ular budjetning bajarilishi to‘g‘risida hisobot taqdim etishlari va uni har tomonlama o‘rganishlari kerak.

Ikkinchidan, bu soliq faoliyatini tartibga soluvchi, shuningdek soliq qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik choralarini belgilaydigan qoidalar va qoidalar to‘plamidir.

Uchinchidan, bu boshqaruv funksiyalarini amalga oshirish uchun axborot muhiti. Soliq organlari va boshqa boshqaruv organlari o‘rtasidagi axborot hamkorligi soliq ma’muriyatchiligi funksiyalarini o‘rganishning alohida mavzusi hisoblanadi.

Soliq ma’muriyatchiligi maxsus ilmiy jarayon sifatida o‘zining mazmuni va tashkil etilishida juda katta ahamiyatga ega. U tarix davomida shakllangan va fan bilan birgalikda modernizatsiya qilingan soliqqa tortish tamoyillarini o‘z ichiga oladi. U iqtisodiy boshqaruv tizimida yetakchi o‘rinni egallaydi.

9 Q.To‘xsanov. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmini takomillashtirish: i.f.d.(DSc) ilmiy darajasini olishi uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent. TMI - 2023.

Nazariy va uslubiy ilmiy tadqiqotlarni umumlashtirib, soliq ma’muriyatchiligining quyidagi xarakterli xususiyatlari ajratiladi:

ijtimoiy fanlar o‘rtasidagi munosabatlarni ta’minlash va iqtisodiy va moliyaviy fanlar yutuqlari to‘g‘risida jamoatchilikka xabar berish;

normativ-huquqiy bazani takomillashtirish masalasida davlatning huquqiy ta’minoti va tashabbusi;

soliq tizimida mavjud soliq turlarini boshqarish;

budjetdan tushadigan soliq tushumlarini rag‘batlantirish;

soliq to‘lovlarining o‘z vaqtida va yaxlitligini nazorat qilish;

soliq tushumlarining prognozi;

davlat boshqaruvi va hujjatlari;

O‘zbekiston Respublikasi axborot xabari;

jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilashga qaratilgan soliq turlarini takomillashtirish.

Soliq ma’muriyatchiligi soliq jarayonini boshqarish tizimi sifatida soliqqa tortishning umumiy qoidalariga mos keladigan muayyan qoidalarga bo‘ysunadi.

Biz soliq ma’muriyatchiligining quyidagi tamoyillarini ta’kidlaymiz:

- qonuniylik prinsipi, ya’ni soliq ma’muriyatchiligi soliq tizimini boshqarishning quyi tizimi bo‘lib, davlatning moliyaviy va soliq qonunchiligiga bo‘ysunishi kerak. Soliq ma’muriyatchiligi doirasida amalga oshiriladigan nazorat ishlari qonun doirasida bo‘lishi kerak.

- obyektivlik prinsipi, bu holda soliq organlari soliq ma’muriyati choralarini amalga oshirishda soliq to‘lovchilarning huquqlarini buzmasligi kerak.

- birlik prinsipi, bu holda soliq ma’muriyatchiligining usullari va harakatlari davlatning barcha qismlariga nisbatan qo‘llaniladi.

- samaradorlik prinsipi. Soliq ma’muriyatchiligining natijalari moliya shaklida ham, ko‘rsatkichlar shaklida ham qilingan xarajatlardan yuqori bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, soliq ma’muriyatchiligining samaradorligi soliq tekshiruvlari natijalari, soliq majburiyatlarini tartibga solish bilan ifodalanadi.

Soliq ma’muriyatchiligini amalga oshirish, iloji bo‘lsa, soliq organlariga ajratilgan kichik mablag‘lar bilan samarali bo‘lib, soliq qonunchiligi talablarining saqlanishini va davlat budjeti tomonidan rejalashtirilgan soliq tushumlarini yig‘ishni ta’minlaydi. Shu nuqtayi nazardan, samaradorlik darajasini koeffitsiyent sifatida hisoblash mumkin.

$$С_{МС} = \frac{С_{мм}}{Й_{см}}$$

bu yerda:

$S_{MS}$ soliq ma’muriyatchiligining samaradorlik koeffitsiyenti;

$S_{MM}$ -yil davomida soliq ma’muriyatchiligiga sarflangan mablag‘lar miqdori (soliq apparati, moddiy va boshqa xarajatlarni saqlash);

$Y_{SM}$-bu yil davomida yig‘ilgan soliqlarning miqdori.

Soliq to‘lovchilarning faoliyati qisman soliqlarni kamaytirishga, soliq ma’muriyatchiligi esa davlat daromadlarini oshirishga qaratilgan. S.Zapolskiyning ta’kidlashicha, soliq subyektlari o‘rtasida vositachi bo‘lib, u budjetda to‘plangan mablag‘lar soliq to‘lovchining iqtisodiy holatiga mos keladigan iqtisodiy tizimni yaratishga mo‘ljallangan. Bundan tashqari, soliq ma’muriyatchiligi samaradorligining ko‘rsatkichlaridan biri bu soliq to‘lovchi tomonidan sarflangan mablag‘ va soliq majburiyatlarini bajarish vaqti hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, soliq ma’muriyatchiligi soliq siyosati tomonidan qabul qilingan strategik maqsad va vazifalar orqali soliq munosabatlarini boshqarishdir.

Ma’muriy qarorlar soliq siyosatini amalga oshirishga qaratilgan, ya’ni. soliqni rejalashtirish, boshqarish va ma’muriy choralar tizimi. Soliq siyosatida qaror qabul qilishning semantik tomoni ustunlik qiladi va oqlanadi, ma’muriyatda esa ularning tashkiliy tomoni inobatga olinadi. Shuning uchun ma’muriyatni nafaqat soliq siyosati jarayoni, balki boshqaruvning haqiqiy jarayoni sifatida ham ko‘rib chiqish mumkin.

Soliq ma’muriyatchiligi soliq siyosatining tashkiliy mexanizmi bo‘lib, ikkinchisi soliq ma’muriyatchiligining maqsadli yo‘nalishlarini belgilaydi. Shu sababli soliq siyosatidagi mavjud kamchiliklar soliq ma’muriyatchiligi samaradorligining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida mamlakatlar tajribasi asosida soliq ma’muriyatchiligida soliq yig‘iluvchanligini oshirishdagi muammolarni bir nechta omillar bilan bog‘liq holatda quyidagicha guruhladik:

1. Iqtisodiy omillar ta’sirida vujudga keladigan muammolar:

mamlakat milliy iqtisodiyotida yashirin iqtisodiyotning ulushini o‘sib borishi. Ayrim biznes subyektlari faoliyatining bir qismini rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazmasdan, soliqlardan qochish maqsadida yashirin ravishda olib borishi soliq bazasini qisqartiradi va pirovardida soliq yig‘iluvchanligini pasaytiradi;

iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasidagi munosabatlarda naqd pul aylanmasining hali ham ustuvor ekanligi. Biznes subyektlarida ko'p holatlarda to'lovlar naqd pulda amalga oshiriladi, bu esa daromadlarni nazorat qilishni qiyinlashtiradi va soliq to'lashdan qochishni osonlashtiradi;

kichik biznes subyektlari sonining ko'pligi va ularning soliq yukiga sezuvchanligi. Keyingi yillarda kichik biznes subyektlari faoliyatini tashkil etishda davlat tomonidan rag'batlantirilishi natijasida kichik biznes subyektlari sonining oshishi ular faoliyatini nazorat qilishni qiyinlashtirdi. Shuningdek, ular soliq yukiga nisbatan juda sezgir bo'lishlari hisobiga soliqlarni to'lashdan qochishga olib keladi;

aholi real daromadlarining pastligi. Soliq to'lovchi jismoniy shaxslar daromadlarining pastligi soliq to'lovchilarning qobiliyatini cheklaydi. Natijada soliq to'lovchilar yer va mol-mulk soliqlarini to'lashi kechikadi yoki umuman to'lash imkoniyati vujudga kelmaydi;

iqtisodiy noaniqlik. Milliy iqtisodiyotda iqtisodiy noaniqlik sharoitida biznes subyektlari soliq to'lashdan qochishga moyil bo'lishi mumkin. Chunki ular o'z daromadlarini saqlab qolishga harakat qilishadi.

2. Soliq munosabatlarida ma'muriy omillar ta'sirida vujudga keladigan muammolar:

mavjud soliq ma'muriyatchiligining samarasi nisbatan pastligi. Soliq organlari faoliyatida byurokratiya, korrupsiya va zamonaviy texnologiyalarning yetarli emasligi soliqlarni to'liq va o'z vaqtida undirish jarayonini qiyinlashtiradi;

soliq qonunchiligining murakkabligi va o'zgaruvchanligi. Soliq qonunchiligining nisbatan murakkabligi va tez-tez o'zgarib turishi soliq to'lovchilar uchun tushunarsizlikni keltirib chiqaradi hamda tizimdagi xatolarni olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, ayrim shaxslar va korxonalar qonunchilikdagi bo'shliqlardan foydalanib, soliq to'lashdan aylanib o'tishlari mumkin;

soliq nazoratining sustligi. Soliq organlari tomonidan soliq to'lovchilar faoliyati ustidan nazoratning yetarli darajada olib borilmasligi soliq to'lashdan qochish holatlarini ko'paytiradi;

soliq tizimida xizmat qiladigan kadrlarning malakasi yetarli emasligi. Soliq organlari xodimlarining malakasi va mahorati belgilangan talablar darajasida emasligi soliq yig'ish jarayonining samaradorligini pasaytiradi.

3. Soliq munosabatlarida psixologik va ijtimoiy omillar ta'sirida vujudga keladigan muammolar:

soliq to'lovchilarda soliq savodxonligi va soliq to'lash madaniyatining yetarli emasligi. Aholi va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida soliq to'lash madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganligi soliqlar va ularga tenglashtirilgan to'lovlarni to'lashdan qochishga olib keladi;

soliqlarning adolatsiz taqsimlanishiga ishonchsizlikning mavjudligi. Aholi va biznes subyektlari soliqlarning budjet bo'g'inlari o'rtasida adolatsiz taqsimlanishiga ishonsa yoki guvoh bo'lsa soliq to'lashni samarasiz deb hisoblaydi va soliqdan qochishga moyilligi yuqori bo'ladi;

korrupsiya darajasining yuqoriligi. Korrupsiya soliq organlari faoliyatiga ta'sir qilib, soliq yig'ish jarayonining shaffofligi va adolatliligiga putur yetkazadi. Bu esa soliq to'lashdan qochish holatlarini ko'paytiradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Soliq munosabatlarida soliq ma'muriyatchiligini tashkil etishda va soliq yig'iluvchanligini oshirishda mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi choralarni ko'rish lozim bo'ladi:

mamlakatda yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va muamaladagi naqd pul aylanmasini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish;

soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish, soliq tizimiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va soliq organlari xodimlarining malakasini doimiy ravishda oshirish;

xalqaro tajribadan kelib chiqib, soliq qonunchiligini yanada soddalashtirish va uning barqarorligini ta'minlash;

soliq nazorati samaradorligini oshirish va soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlariga qarshi tizimli kurashish;

aholi va biznes subyektlari o'rtasida soliq to'lash madaniyatini shakllantirish va soliqlarning adolatli taqsimlanishini ta'minlash;

korrupsiyaga qarshi kurashishni kuchaytirish va davlat organlari faoliyatining shaffofligini oshirish.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:


1. Ш.Мирзиёев. Ислоҳотлар натижадорлиги таҳлил қилиниб, қўшимча вазифалар белгиланди. 16 июнь 2025 йил. https://president.uz/uz/lists/view/8225.
2. Қ.Тўхсанов. Тадбиркорлик субъектлари фаолиятини молиявий рағбатлантириш механизмини такомиллаштириш: и.ф.д.(DSc) илмий даражасини олиши учун ёзилган диссертация автореферати. Тошкент. - 2023. 69 бет.
3. Оспанов М.Т. Налоговая реформа и гармонизация налоговых отношений. – СПб.: УЭФ, 1997.
4. Гончаренко Л.И. Налогообложение организаций: Учебник. – М., 2006. С-480.
5. Абрамчик Л.Я. Налоговое администрирование в системе финансового контроля // Финансовое право. – 2005. – № 6. оговый вестник. – 2000. – № 11.
6. Перонко И.А. Методы и формы налогового администрирования // Налоговый вестник. – 2000. – № 11.

7. Аронов А.В., Кашин В.А. Налоговая политика и налоговое администрирование: учеб. пособие. – М.: Экономист, 2006.
8. Перекрестова Л.В., Чухнина Г.Я. Реформирование системы налогового контроля в РФ. – Волгоград: ВолГУ, 2001.

# YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

**2025. № 7**



© Materiallar ko'chirib bosilganda ""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz